



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024
2/2-сон



МУНДАРИЖА:

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Соҳибназар Каримов Тасаввуф таълимотида тарбия хизмати масаласи	5
Diyor Haqberdievich Xolmamatov Ulgurji savdoni iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyati bilan bog‘liq ilmiy-nazariy qarashlar	11
Shohida Kamoliddin qizi Jo‘raboyeva Eksport salohiyati tushunchasining konseptual asoslari	15
Rustam Nuridinovich Jiyamuratov Hududiy eksport salohiyatini oshirishga oid nazariy yondashuvlar	22
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Ziyobidin Shaminovich Suvonov Sun‘iy intellekt va uning imkoniyatlari	27
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Фарход Бахриддинович Ахроров Ўзбекистонда ер ресурсларини баҳолашнинг экологик-иқтисодий услубияти	31
Shexroza Madjitovna Karimova Qovoq – funksional oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda istiqbolli xomashyo	36
ТАДБИРКОРЛИК, МЕХНАТ, БАНДЛИК ВА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШ	
Феруза Асатовна Ишонкулова Необходимые условия для успешной деятельности предпринимательства в Республике Узбекистан	39
Rahmatillo Miralimovich Egamov, Rushona Sheraliyevna Husainova Hududiy iqtisodiyotning rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni	45
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Сарвар Аюбовна Исхакова Хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришда тadbirkorlikнинг салоҳиятидан фойдаланиш имкониятлари	49
Zoxid Sobirovich Axmedov Transport logistikasi xizmatlari samaradorligini oshirishda innovatsion jarayonlarning qo‘llanilishi	53
Обид Мамаюнович Пардаев Хизмат кўрсатиш соҳасини такомиллаштириш ҳисобига маҳаллалар ободлигини таъминлаш масалалари	57
Фарход Анварович Сафаров Ўзбекистонда хизматлар соҳасининг комплекс стратегик таҳлилини TOWS-матрицаси ёрдамида амалга ошириш имкониятлари	60
Orzujon Mamasoliyevich Rajabov Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	65
Bekzod Maxsudovich Abdumannonov Ekologik toza jamoat transportidan samarali foydalanish – avtomobillar tirbandligini bartaraf etishning kafolatidir	70

- государственного университета. Экономика. 2019, 68–76 с.
5. Корчагин С.О текущих трендах в развитии технологии блокчейн / С. Корчагин // Свободная мысль. - 2016. - № 4 (1658). - С. 31-38.
 6. Лысенко Ю.В., Лысенко М.В., Гаринов Р.И. Азимут научных исследований: экономика и управление. 2019, 240-242 с.
 7. Негреева В.В., Замятина А.А., Шпакович Д.К., Шаронова А.Д. Использование цифровых технологий в логистике. Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент. 2020, №2 94-102 с.
 8. Нигматулин Т.А. Перспективы использования технологии блокчейн таможенными органами РФ / Т.А.Нигматулин, А.И.Краснова, А.А.Лавринович // Ученые записки Санкт-Петербургского им. В. Б. Бобкова Филиала Российской таможенной академии. - 2016. - № 4 (60). - С. 11-14.
 9. The Internet of Things (IoT) [Электронныйресурс]. – URL: <https://www.prnewswire.com/news-releases/theinternet-of-things-iot-market-is-expected-to-grow-from-usd-17057-billion-in-2017-to-usd-56104-billion-by-2022-ata-compound-annual-growth-rate-cagr-of-269-300585814.html> (Дата обращения: 19.04.2020)

<p>О.Раджабов</p> <p>Использование цифровых технологий в повышении эффективности логистических услуг</p> <p>Аннотация: в данной статье освещено использование цифровых технологий в различных отраслях и секторах экономики в период перехода к цифровой экономике, в том числе использование цифровых технологий при оказании логистических услуг. В статье рассматривается использование блокчейна, больших данных, Интернета вещей (IoT) и 3D-печати как цифровых технологий повышения эффективности логистических услуг.</p> <p>Ключевые слова: цифровая логистика, цифровые технологии, блокчейн, большие данные, Интернет вещей (IoT), 3D-печать, интеллектуальные транспортные системы, беспилотный транспорт.</p>	<p>O.Rajabov</p> <p>Using digital technologies to improve the efficiency of logistics services</p> <p>Abstract: in this article, the use of digital technologies in various sectors and spheres of the economy during the transition to the digital economy, including the use of digital technologies in the provision of logistics services, is highlighted. The article considers the use of blockchain, Big Data, the Internet of Things (IoT), and 3D printing as digital technologies for improving the efficiency of logistics services.</p> <p>Keywords: digital logistics, digital technologies, blockchain, Big Data, Internet of Things (IoT), 3D printing, intelligent transport systems, unmanned vehicles.</p>
---	--

Bekzod Maxsudovich Abdumannonov – Menejment kafedrasi assistent-stajyori

EKOLOGIK TOZA JAMOAT TRANSPORTIDAN SAMARALI FOYDALANISH – AVTOMOBILLAR TIRBANDLIGINI BARTARAF ETISHNING KAFOLATIDIR

Annotatsiya: maqolada yirik shaharlarda avtomobillar tirbandligi muammosini bartaraf etish bilan bir qatorda, yildan-yilga ortib borayotgan avtotransport vositalarining harakat oqimini sezilarli darajada pasaytirish, shuningdek shahar atmosferasi, tabiiy biologik xilma-xillikni saqlab qolish, atrof-muhit ifloslanishini oldini olish, jamoat transportidan va qayta tiklanuvchi energiya manbalari evaziga harakatlanuvchi ekologik toza avtotransport vositalaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish masalalari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: tirbandlik, atmosfera va atrof-muhitning ifloslanishi, “aqli” yo‘l infratuzilmasi, “Yashil” jamiyat, elektrobust, avtoturargoh, velosiped va elektroskuter, elektromoped.

Kirish. Dunyoning deyarli barcha yirik megopolislari, shuningdek shahar avtomobil yo‘llarida tirbandlik muammosi bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanib, uni bartaraf etish strategik ahamiyatiga ega bo‘lgan vazifasildan biri bo‘lib qolmoqda. Yirik shaharlar ko‘chalarida avtomobillar oqimi yildan-yilga ortib, transport vositalarining harakat oqimi esa sezilarli darajada pasaymoqda, shuningdek shahar atmosferasi, tabiiy biologik xilma-xillik, atrof-muhitning ifloslanish darajasi kundan-kunga ortib bormoqda.

Shahar aholisi daromadlarining o‘sishi bilan so‘nggi yillarda shaxsiy avtomobillar soni

ikki-uch barobar oshdi. Har kuni shahar ko‘chalarida bir necha mingdan ortiq avtomobillar harakatlanishi natijasida jamoat transportining erkin harakatlanishi uchun ham juda katta qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda. Mazkur holat shahar ko‘chalarida shaxsiy va jamoat avtotransport vositalarining harakati doimiy tirbandlikka aylanib qolish xavfi ortib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bir qator xorijiy mamlakatlar olimlari tomonidan ekologik toza transport vositalaridan samarali fodalaniş masalalari tahlil etib kelinayotgan dolzarb mavzu hisoblanib, 1980-yillarning o‘rtalaridan boshlab, rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga eng yuqori motorizatsiya davridan boshlab fundamental ish [Enoch, 2012; Nyuman va Kenvorti, 1999; Schiller va boshqalar. 2010] tomonidan tahlil etilgan. Ilk tahlillar transport vositalari harakatini rejalashtirish, shaxsiy avtomobilga, jumladan, transport paradokslari deb ataladigan tushunchalarni o‘rganishga va induksiyalangan talabning ta‘sirini tavsiflashga qaratilgan edi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, yo‘lning o‘tkazuvchanligini 10%ga o‘sishi transport vositalari sonini 3-6% dan, 6-10% ga oshiradi [Litman, 2001; 2014 yil; 2020; Noland, Lem, 2002].

Yaqin kelajakda yanada katta tirbandliklar kelib chiqishi ehtimoli (Lyuis-Moggridge paradoksi) [Lyuis, 1977; Moggridge, 1990] prognoz qilingan. Uning fikriga ko‘ra yangi yo‘llarning qo‘shilishi umumiy sayohat vaqtini oshiradi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarining yirik shaharlarida 1993-yildan 2017-yilgacha avtomobil yo‘llari uzunligi 42 foizga (30,5 ming milya qurilgan) oshganiga qaramay, tirbandliklar o‘rtacha ko‘paygan (2,4 marotaba). Aslida yo‘llarning erkin kengayishi odamlarni avtomobildan foydalanishning yuqori intensivligiga olib keldi [Hymel, 2019; Noland, Lem, 2002].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada xorijiy olimlar tomonidan o‘tkazilgan o‘rganish natijalarini tizimli va mantiqiy tahlil qilish usullaridan foydalanilgan. Turli olimlarning qarashlari tizimli va umumlashtirish uslublari vositasida o‘rganilib, sohaga oid dolzarb muammolarga aniqlik kiritilgan. Shuningdek, muallifning uzoq yillar mobaynida o‘tkazgan vizual kuzatishlari va mantiqiy fikrlashi natijasida bir qancha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy Xitoy poytaxti Pekin shahrida 25 mingdan ortiq jamoat transporti aholiga transport xizmati ko‘rsatish bilan bog‘liq turli yo‘nalishlarda harakatlanadi. Xitoy Transport vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakatda jamoat transportining yo‘lovchi tashish umumiy hajmidagi hissasi atigi 30 foiz (rivojlangan mamlakatlarda – 60 foizga yaqin). Shu sababli Xitoy hukumati jamoat transportining qulay, tez, ishonchli, qatnov jadvaliga amal qiluvchi, xavfsiz va arzon bo‘lishiga harakat qilmoqda.

Shuningdek, Pekindagi 500 dan ortiq avtobus yo‘nalishlarida katta yoshli yo‘lovchilar uchun 60 foiz, maktab o‘quvchilari uchun 80 foiz chegirmalar mavjud. Avtobuslar va tez yordam mashinalari kunning ma‘lum vaqtlarida harakatlanishi uchun alohida yo‘laklar ajratilgan (asosan, ertalab va kechki paytlarda). Ushbu yo‘laklarda boshqa avtomobil vositalarini boshqarish uchun katta miqdordagi jarimalar mavjud, agar mazkur holat takroran sodir etilgan taqdirda, jarima miqdori ikki barobar oshiriladi.

Bundan tashqari, butun mamlakat bo‘ylab kun davomida yo‘llarda rejali ta‘mirlash ishlarini olib borish taqiqlanadi (ayrim holatlar bundan mustasno, ayniqsa, shoshilinch ishlarni bajarish kerak bo‘lsa).

Pekin shahri ma‘muriyati birinchi navbatda, yo‘l infratuzilmasi, yuqori sifatli yo‘l qoplamalari, aniq ajratuvchi chiziqlar, yo‘l belgilari va boshqalar sifatini keng miqyosda yaxshilashga alohida e‘tibor qaratmoqda. 6 ta Pekin halqa yo‘llarida maksimal tezlik chegarasi 60 dan 100 km/soatgacha. Qulay burilish yo‘laklari, yo‘l o‘tkazgichlar tufayli (svetoforlar va harakatni tartibga soluvchilar yo‘qligida) transport tizimining imkoniyatlari sezilarli darajada ortib, tirbandlik miqdorini kamaytirishga yordam bermoqda.

Shuningdek, poytaxtdagi deyarli barcha yo‘llarda qoidabuzarliklarni qayd etuvchi videokameralar o‘rnatilgan. Ushbu videokuzatuv tizimi Xitoyda 2005-yilda boshlangan “Skynet” davlat dasturining bir qismidir. 2023-yil boshida videokuzatuv kameralari soni 46 mingtani

tashkil etdi. Xitoy poytaxti “Aqlli shahar” global reytingida uchinchi o‘rinni egalladi.

Bundan tashqari, asosiy yirik obyektlarga (aeroportlar, vokzallar) olib boruvchi pulli, ko‘p chiziqli yo‘l o‘tkazgichlar (ruxsat etilgan tezlik - 120 km/soatgacha) qurildi. Masalan, Pekin markazidan “Shoudu” aeroportigacha bo‘lgan masofa 30 km, “Dasin” aeroportigacha 60 km¹.

“Yashil” jamiyat sari

Xitoy Xalq Respublikasi elektr transport vositalari uchun eng yirik bozor hisoblanib, 2023-yil birinchi yarmida elektr transport vositalari global savdosining 55 foizi Xitoy hissasiga to‘g‘ri kelgan – 3,4 million dona. Pekin ma‘muriyati 2023-yilda 100 ming dona davlat raqamini chiqarishga qaror qilgan bo‘lsa, shundan 70 mingtasi elektromobillar uchun beriladi. Bundan tashqari, elektr va gibrid transport vositalari uchun “yashil” davlat raqamlarini bepul olish mumkin. Shu bilan birga, elektrobuslar ham faol joriy etilmoqda. Pekin va Xitoyning yana 30 ta shahri 2028-yilga borib, jamoat transportida 100 foiz elektrobuslardan foydalanishni rejalashtirmoqda.

Pekinda obodonlashtirish jarayoni “tajovuzkor” olib borilyapti. Masalan, 2023-yilning o‘zida:

- 8 ming gektar yer maydoni ekologik restavratsiya qilinib, ming gektar maydonda o‘rmonlar barpo etildi;

- 22 ta istirohat bog‘lari va shahar o‘rmonlari, shuningdek, 50 ta “cho‘ntak” bog‘lari va kichik yashil maydonlar paydo bo‘ldi;

- aholi zich yashaydigan massivlarida 10 ta yangi bog‘lar tashkil etildi;

- shahar yashil maydonlari maydoni yana 200 gektarga ko‘paytirildi.

Rasmiy ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023-yilda Pekinda o‘rmon qoplami 45 foizga, ko‘kalamzorlashtirish darajasi esa 50 foizga yetdi².

Xulosa va takliflar. Yirik shaharlarda atmosfera musaffoligini saqlash va avtomobillar tirbandligini bartaraf etish masalasi qanday qilib o‘z yechimini topadi?

Birinchi yechim: Yirik shaharlar ma‘muriyati fuqarolar uchun shaxsiy avtomobillarga davlat raqamini olish jarayonini avtomobil sotib olishdan qiyinroq etib qo‘yishi lozim, ya‘ni avtomobil raqamini sotib olish uchun siz lotereya o‘yinida ishtirok etishingiz yoki uzoq yillar davomida kutishingiz, yoki elektron auksion savdolarida ishtirok etib, katta miqdordagi to‘lovni amalga oshirishingiz lozim, buning uchun esa siz ma‘lum talablarga javob berishingiz (shaharda so‘nggi besh yil davomida yashagan bo‘lishingiz, soliqlarni muntazam ravishda to‘lagan bo‘lishingiz, shuningdek ijtimoiy sug‘urtaga ega bo‘lishingiz) lozim. Yirik shaharlarda faoliyat yuritayotgan yuridik shaxslar, kompaniyalar, korxonalar va tashkilotlar uchun mazkur talablar yanada murakkabroq etib qo‘yilishi lozim.

Ikkinchi yechim: Shahar atmosferasi ifloslanishi o‘ta yuqori bo‘lgan kunlarda avtotransport vositalarining harakatini cheklash borasida qat‘iy talablar kuchaytirilib, fuqarolar shaxsiy avtomobildan haftada to‘rt kungacha foydalanish mumkin bo‘lgan qoida joriy etilishi, shahar va uning atrofidagi hududni kulrang tutun yoki chang qoplaganda, shaxsiy avtotransport vositalaridan foydalanish qoidalarini yanada kuchaytirish, ya‘ni haftaning toq kunlarida davlat raqami toq bo‘lgan raqamlar bilan boshlanadigan avtotransport vositalari, juft kunlarda esa davlat raqami juft raqamlar bilan boshlanadigan avtotransport vositalari harakatiga ruxsat berish lozim. Natijada davlat tasarrufidagi korxonalar va tashkilotlarga tegishli bo‘lgan avtomobillarining taxminan 30 foizga yaqini maxsus avtoturargohlar yoki garajlarda qolishi ta‘minlanadi. Buning natijasida, taxminan 500 mingdan ortiq aholi havo ifloslangan kunlarda jamoat transporti xizmatlaridan foydalanadi.

Uchinchi yechim: Shaharlarda qurilish kompaniyalari uchun tozalikni saqlash bo‘yicha qat‘iy tartib-qoidalar joriy etish lozim. Xususan, yuk mashinalari qurilish maydonchasidan shahar ko‘chalariga chiqishidan oldin avtoransport vositasining shinalari va kuzovini yaxshilab

¹ <https://kun.uz/kr/news/2023/11/03/avtomobildan-himoyalangan-shahar-pekinda-havo-tozaligini-saqlash-va-tirbandliklar-masalasi-qanday-yechilgan>

² <https://kun.uz/kr/news/2023/11/03/avtomobildan-himoyalangan-shahar-pekinda-havo-tozaligini-saqlash-va-tirbandliklar-masalasi-qanday-yechilgan>

tozalamasdan, chiqishi qat’iyan man etilishi lozim.

To’rtinchi yechim: Yirik shaharlarda avtotransport vositalarining yuqori tirbandligi insonlarning jamoat transportida harakatlanish vaqtini sezilarli darajada uzaytiradi, mehnat unumdorligini pasaytiradi va ortiqcha mablag’ yo’qotishlariga olib keladi. O’tkazilgan hisob-kitoblarga ko’ra, yirik shaharlar ma’muriyati har yili bundan milliardlab miqdordagi pul mablag’larini bevosita va bilvosita iqtisodiy yo’qotishlariga duch kelmoqda.

Beshinchi yechim: Tumanlar aholisining shaxsiy avtotransport vositalarida shahar hududiga kirib kelishini tartibga solish va ma’lum bir toifadagi (ishlab chiqarilgan yili 5 yildan ortiq, yirik gabaritli transport vositalari, dizel va benzin yoqilg’isida harakatlanadigan avtotransport vositalari) transport vositalarini harakatlanishini cheklash maqsadida tuman va shahar hududi chegarasida yer unumdorligi o’ta past bo’lgan bo’sh yer maydonlarida yirik avtoturargohlar, shuningdek ko’p qavatli yerusti va yerosti avtoturargohlarini barpo etish lozim. Fuqarolar esa o’z navbatida shaxsiy transport vositalarini maxsus barpo etilgan avto turargohlarga joylashtirgan holda ishga, o’qishga va boshqa yumushlar yuzasidan shahar jamoat transportidan keng foydalanish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Natijada, tumanlardan shahar hududiga kirib keladigan transport vositalarining tirbandligining oldi olinib qolinmasdan, balki yoqilg’i-moylash materiallarining tejab qolinishi, atmosfera havosi musaffoligining ta’minlanishi, biologik xilma-xillikning saqlab qolinishi, tarixiy ahamiyatga ega bo’lgan bino-inshootlarning avtomobil tebranishi natijasida yetkazilayotgan zarari miqdorini kamayishiga hamda fuqarolar tomonidan shahar jamoat transportidan foydalanish darajasi oshishiga va madaniyati shakllanishiga imkon beradi.

Taklif va tavsiyalar:

- og’ir yuk avtomobillarining shahar ko’chalariga kirishiga faqat tungi vaqtda - soat 23:00 dan 6:00 gacha ruxsat etish;

- Davlat organlari va xo’jalik yurituvchi subyektlar tomonidan ish kunining boshlanishi va tugashiga o’zgartirishlar kiritilishini rag’batlantirish, tig’iz paytlarda tirbandlikni kamaytirish. Ushbu chora-tadbirlar shaharlarda shaxsiy avtotransport vositalari parkining 30 foizini har kuni shahar ko’chalarida harakatlanishini cheklash, kunlik gaz chiqindilarini 30 foizga kamaytirish imkonini beradi;

- yo’nalishsiz taksilarni real vaqt rejimida harakat zichligini ko’rsatadigan va haydovchilarga marshrutni optimallashtirish uchun tavsiyalar beruvchi maxsus navigatsiya tizimlari bilan jihozlash.

- yirik xalqaro tadbirlar (konferensiyalar, forumlar, sport musobaqalari va o’yinlari) vaqtida davlat organlari avtoparkining 70 foizidan foydalanishni taqiqlash.

- shahar aholisi va shahar atrofidagi aholi uchun velosiped va elektroskuter, elektromopedlardan keng foydalanishni joriy etish.

- avto va piyodalar harakatini tezkor tartibga solish uchun asosiy chorrahalarga yo’l harakatini tartibga soluvchi inspektorlarni joylashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Блинкин М.Я. Качество планирования городских транспортных сетей: в зеркале классических моделей теории транспортного потока // Городские исследования и практики. 2015. С. 55–66.
2. Блинкин М.Я., Воробьев А.Н. Городское движение и планировка городов // Городские исследования и практики. 2018. Т. 3. № 2. С. 7–26.
3. Варламов И., Кац М. 100 советов мэру: книга рецептов хорошего города. М.: Альпина нон-фикшн, 2020.
4. Гришаева Ю.М., Матанцева О.Ю., Спирин И.В., Савосина М.И., Ткачева З.Н., Васин Д.В. Устойчивое развитие транспорта в городах России: опыт и актуальные задачи // Юг России: экология, развитие. 2018. Т. 13. № 4. С. 24–46.
5. <https://yuz.uz/ru/news/avtomobilne-probki-na-dorogax-kak-reshit-problemu>.
6. <https://kun.uz/kr/news/2023/11/03/avtomobildan-himoyalangan-shahar-pekinda-havo-tozaligini-saqlash-va-tirbandliklar-masalasi-qanday-yechilgan>.

<p>Б.Абдуманнонов</p> <p>Эффективное использование экологически чистого общественного транспорта – гарантия предотвращения автомобильных пробок на дорогах</p>	<p>B.Abdumannonov</p> <p>Effective use of environmentally friendly public transport is a guarantee of prevention of traffic congrams</p>
<p>Аннотация: В статье обсуждаются вопросы предотвращения автомобильных пробок в крупных городах, существенного сокращения транспортных средств, сохранения городской атмосферы, природного биологического разнообразия, предотвращения загрязнения окружающей среды, а также эффективного использования общественного транспорта и экологически чистых транспортных средств.</p> <p>Ключевые слова: Пробки на дорогах, загрязнение атмосферы и окружающей среды, «умная» дорожная инфраструктура, «Зеленое» общество, электробус, парковка, велосипед и электросамокат, электрический мопед.</p>	<p>Abstract: The article discusses the issues of preventing traffic jams in large cities, significantly reducing the number of vehicles, preserving the urban atmosphere, natural biodiversity, preventing environmental pollution, as well as the effective use of public transport and environmentally friendly vehicles.</p> <p>Key words: Traffic jams, air and environmental pollution, smart road infrastructure, Green society, electric bus, parking, bicycle and electric scooter, electric moped.</p>

Шахриёр Шодиёрович Тураев – Ўзбекистон Республикаси Адвокатлар палатаси Самарқанд вилоят ҳудудий бошқармаси бош бухгалтери. Мустақил тадқиқотчи

ЮРИДИК ХИЗМАТЛАРНИНГ ТАРКИБИДА АДВОКАТЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ ЎРНИ ВА УНИНГ НАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ

<p>Аннотация: мақолада юридик хизматлар таркиби адвокатлик фаолиятининг ўрни ва унинг назарий масалалари қараб чиқилган. Унда юридик хизматларни муҳим таркиби ҳисобланган адвокатура институтини самарали ва ижобий ютуқларидан фойдаланишни, адвокатлик хизмати, шунингдек юридик ёрдам кўрсатиш билан боғлиқ қонун ҳужжатларини амалиётга татбиқ этишни такомиллаштириш уни самарали механизмларини жорий қилиш масалаларига ҳам эътибор қаратилган.</p> <p>Калит сўзлар: ишонч билдирувчи, юридик хизмат, адвокат, битим, жисмоний шахс, юридик шахс, тарафларнинг холислиги, ҳимоя остида, адвокатлик фаолияти.</p>
--

Кириш. Республикамизда ҳозирда тадбиркорликни ривожлантиришга янада алоҳида эътибор берилиб, натижада масъулияти чекланган жамиятлари, акциядорлик жамиятлари, хусусий корхоналар шунингдек хўжалик ширкатлари кўринишида бўлган ташкилий ҳуқуқий тузилишга эга корхонанинг ва ташкилотларнинг сонлари бир неча бараварга ортиб, бу эса ҳозирда шиддат билан давом этмоқда. Бундай кўринишдаги корхоналарнинг тадбиркорлик фаолиятида шартномалар тузиш ва меҳнат интизомларига риоя этиш қонунчилик билан амалда таъминлаш устидан назорат этиш, тадбиркорлик мулкларини сақлашни, шу каби ҳуқуқий масалаларни амалга оширишда юридик хизматнинг ўрни жуда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили. Мавзунинг муаммоли жиҳатлари билан мамлакатимизда ва хорижий давлатларда олимлар, мутахассислар ва амалиётчилар каби ходимлар изланишлар олиб бормоқда. Булар жумласига Ҳ.Б.Бобоев, И.Б.Зокиров, Л.Б.Хван, Ф.Ҳ. Отахонов, Ў.Х.Мухамедов, З.Муқимов, Х.Т.Одилқориев, О.Оқюлов кабиларни¹ киритиш мумкин. Ушбу олимларнинг тадқиқотларида бу масала тўлиқ ўрганилмаган

¹ Хван Л.Б. “ Солик ҳуқуқи” 2001 й. 430-Б Консаудитинформ нашриёти, Отахонов Ф.Х. “Юридик хизматнинг хўжалик шартномаларини тузиш ва уларнинг ижросини таъминлашдаги роли” Ж.Хўжалик ва ҳуқук. – 2001. – 10-сон. – Б.26-33.,

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

27.05.2024 йилда теришга берилди. 14.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076В/24

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.